ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна, Махмудова Маяна Азатовна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTлари O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	



BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruza Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	
SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	



MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dिल्фуза Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улугбек ўгли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLİYALASHTIRISHDA MOLİYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQUARADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	



TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKIOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	
O'ZBEKISTONDAGI KLASSTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA	1870
Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich	
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ	1875
Алиева Сусанна	
PUL-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	1881
A.A. Ismailov	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1887
Shirinova G.X.	
XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1893
Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017-2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI	1900
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich, Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna, Turg'anbayeva Ramiza Tolibayevna	
ГЛОБАЛЬНЫЕ И ЛОКАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ БАНКОВСКИХ УСЛУГ	1907
Махамаджанов Мухаммадали Музаффарович	
YO'LOVCHI TRANSPORT XIZMATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1912
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Aktamov Abduvali Abdug'ani o'g'li	
BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZ (2014-2030-YILLAR)	1917
A.F. Ergasheva	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	1930
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	1937
Begmatova Ziyoda Zaxidjon qizi	



RISKNI SUG'URTALASH ORQALI KORXONA FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1942
Maxmudov Shoxruxbek Asror o'g'li	
GLOBAL STANDARDS AND PRACTICES IN MEDICAL TOURISM: AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CURRENT TRENDS, CHALLENGES, AND REGULATORY FRAMEWORKS.....	1947
Adilova Diyora Ulugbekovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ АКВАКУЛЬТУРНЫМ СЕКТОРОМ НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ И ТЕХНОЛОГИЙ ОПТИМИЗАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ.....	1952
Мырзатаев Саламат Муратбаевич, Аскаров Бахтияр Мамытович	
MINTAQAVIY SUG'URTA BOZORINING MINTAQANING IJTIMOIIY-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI	1958
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI DARAJASI VA FINTECH PLATFORMALARINING ROLI	1963
Abdullayeva Dilfuza Atajan qizi	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI.....	1969
Jo'rayev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
FARMATSEVTIKA FAOLIYATINING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	1972
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL ENTERPRISES' ACTIVITY	1976
D. Meiliyeva	
BUDJET MABLAG'LARINING BIR QISMINI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISLOHOTLARI	1979
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
MINTAQQA IQTISODIYOTDA SANOAT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TUZILMALARINING IXTISOSLASHUV TENDENSIYALARI.....	1987
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
MINTAQQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA LOGISTIK XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RESURLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	1997
Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich	
SOLIQ TIZIMIDA TOVAR TRANSPORT YUK XATLARI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	2004
Muxammadov Nodir Karimovich	



SOLIQ TIZIMIDA TOVAR TRANSPORT YUK XATLARI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Muxammadov Nodir Karimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchi i.f.f.d. (PhD),

E-mail: nodir.muhammadov@gmail.com

ORCID ID: 0009-0008-2029-6968

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston soliq tizimida tovar-transport yuk xatlarini (TTYX) raqamlashtirish jarayonining amaldagi holati, uning afzalliklari, mavjud muammolari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. TTYX ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va iste'molchi o'rtasidagi tovar harakatining asosiy hujjati bo'lib, soliq ma'murchiligi, logistik jarayonlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob-kitob faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mazkur hujjatlarni raqamlashtirish jarayoni nafaqat soliqni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantiradi, balki transport-logistika tizimining shaffofligi va samaradorligini ham oshiradi. Maqolada TTYXni elektron shaklga o'tkazish orqali soliq organlari, bojxona xizmati va transport nazorati o'rtasida ma'lumot almashinuvi qanday takomillashishi, real vaqt rejimida nazoratning qay darajada kuchayishi va yashirin iqtisodiy aylanmani qisqartirishga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslar bilan yoritiladi. Shuningdek, raqamli TTYXning qo'llanilishi hisob-kitob jarayonlarida aniqlikni oshirishi, hujjatlarning qalbakilashtirilish ehtimolini kamaytirishi va tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini adolatli shakllantirishga xizmat qilishi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligi, soliq tizimi, raqamlashtirish, mahsulot identifikatsiyasi, elektron nazorat, ma'lumotlar almashinuvi, raqamli infratuzilma, integratsiya, markirovka tizimi, raqamli monitoring, tovar-transport yuk xati, soliq nazorati, raqamli logistika, tadbirkorlik sub'yektlari.

Abstract. This article provides a deep scientific analysis of the current state of the process of digitizing freight and transport bills (TTYX) in the tax system of Uzbekistan, its advantages, existing problems and future development directions. TTYX is the main document of the movement of goods between the manufacturer, supplier and consumer, and is of great importance in tax administration, logistics processes and accounting activities of business entities. Therefore, the process of digitizing these documents not only forms modern tax management mechanisms, but also increases the transparency and efficiency of the transport and logistics system. The article discusses with scientific justification how the transfer of TTYX to electronic form will improve the exchange of information between tax authorities, customs service and transport control, how real-time control will be strengthened, and what impact it will have on reducing hidden economic turnover. It is also shown that the use of digital TTYX increases the accuracy of accounting processes, reduces the likelihood of document forgery, and serves to fairly form the tax burden of business entities.

Key words: tax system, digitization, tax administration, tax system, digitization, product identification, electronic control, data exchange, digital infrastructure, integration, marking system, digital monitoring, goods and transport waybill, tax control, digital logistics, business entities.

Аннотация. В данной статье дается глубокий научный анализ текущего состояния процесса оцифровки грузовых и транспортных накладных (ТТН) в налоговой системе Узбекистана, ее преимуществ, существующих проблем и будущих направлений развития. ТТН является основным документом движения товаров между производителем, поставщиком и потребителем и имеет большое значение в налоговом администрировании, логистических процессах и бухгалтерской деятельности субъектов предпринимательства. Поэтому процесс оцифровки этих документов не только формирует современные механизмы налогового управления, но и повышает прозрачность и эффективность транспортно-логистической системы. В статье с научным обоснованием рассматривается, как перевод ТТН в электронный вид улучшит обмен информацией между налоговыми органами, таможенной службой и транспортным контролем, как будет усилен контроль в режиме реального времени и какое влияние это окажет на сокращение скрытого экономического оборота. Также показано, что использование цифрового ТТН повышает точность учетных процессов, снижает вероятность подделки документов и служит справедливному формированию налоговой нагрузки субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: налоговая система, цифровизация, налоговое администрирование, налоговая система, цифровизация, идентификация товара, электронный контроль, обмен данными, цифровая инфраструктура, интеграция, система маркировки, цифровой мониторинг, товарно-транспортная накладная, налоговый контроль, цифровая логистика, субъекты хозяйствования.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq ma'murchiligini soddalashtirish hamda jarayonlarni to'liq raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning asosiy maqsadi — soliq tizimining shaffofligini oshirish, soliq tushumlarini barqaror ta'minlash, davlat organlari o'rtasida real vaqt rejimidagi ma'lumot almashuvni kuchaytirish va yashirin iqtisodiy faoliyatni sezilarli darajada qisqartirishdan iborat.

Tovar-transport yuk xatlari (TTYX) xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar harakati, yetkazib berish jarayonlari va transport-logistika tizimidagi hisob-kitoblar uchun asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ular tovarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga qadar bo'lgan butun yo'nalishdagi harakatini hujjatlashtirib boradi, shuningdek, soliqqa tortish bazasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur hujjatlarning qog'oz shaklida yuritilishi esa ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi: ma'lumotlarning yo'qolishi, noto'g'ri rasmiylashtirilishi, qalbakilashtirilishi, aylanma hajmining yashirilishi, soliq hisobotlarida noaniqliklarning paydo bo'lishi va idoralararo nazoratning sustlashishi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, elektron yuk xatlari tizimini joriy etgan davlatlarda soliq tushumlari oshgan, hujjat aylanishi tezlashgan, ta'minot zanjiri boshqaruvi soddalashtirilgan va transport oqimlari ustidan nazorat kuchaygan. AQSH, Yevropa Ittifoqi va Xitoyda qo'llanilayotgan raqamli logistika tizimlari bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu ilg'or tajribalar O'zbekiston uchun ham ahamiyatli bo'lib, ularni milliy soliq tizimi va infratuzilmaga moslashtirish zamon talabi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatshiligida joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

Soliq majburiyati – jismoniy shaxs, korporasiya yoki boshqa yuridik shaxsning davlat oldidagi soliq qarzining umumiy summasidir. Daromad solig'i, savdo solig'i va kapital daromad solig'i soliq majburiyatlarining barcha shakllaridir (Jonson, 2022) [1].

Soliq majburiyatining ta'rifi jismoniy yoki yuridik shaxsning davlatga soliq bo'yicha qarzi bo'lgan pul yoki qarz miqdoridir (Jozepson, 2022). Demak, anglashilmoqdaki soliq majburiyatlari soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarab ketmoqda. Ya'ni ushbu tadqiqot doirasida soliq to'lashdan bo'yin tovlash tushunchasini iqtisodiy mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash deganda jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq majburiyatlarini qonunga xilof ravishda kamaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli faoliyat tushuniladi. Soliq majburiyatlari soliq tizimlarining standart va huquqiy jihati bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash firibgarlik yo'li bilan ushbu majburiyatlardan qochish yoki kamaytirishga qaratilgan jinoiy harakatdir[2].

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash tarix davomida hamma joyda keng tarqalgan. "Soliq to'lashdan bo'yin tovlash" atamasi soliqlarning adolatli ulushini to'lashni istamaydiganlar tomonidan keng ko'lamli faoliyatni o'z ichiga oladi (Ovusu va boshq., 2019). Daromadni kamaytirib ko'rsatish, chegirmalarni ortiqsha ko'rsatish va moliyaviy hujjatlarni manipulyatsiya qilish soliq to'lashdan bo'yin tovlash strategiyasining misolidir (Ozili, 2020). Shunga qaramay soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasida yo'qotilgan daromad miqdori har qanday mamlakatda katta bo'lishi mumkin. [3].

Ko'pgina soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha tadqiqotlar individual xatti-harakatlarni aniq kontekstda ko'rib chiqadi (Alm va boshq., 2019). Axloqiy, ishonsh, munosabat, idrok, niyat, xabardorlik, madaniyat, dindorlik, bilim va ta'lim kabi individual omillarga bog'liq. Shaxsiy daromad solig'i bu xatti-harakatlar ko'rib shiqiladigan eng keng tarqalgan ob'ektiv bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha eng nazariy va empirik ishlar shaxsiy daromad solig'iga qaratilgan (Efeeloo va Dik, 2018). Jismoniy shaxslar o'z daromadlarini kam hisobot berish, chegirmalarni, imtiyozlar yoki kreditlarni ortiqcha ko'rsatish, soliq deklarasiyasini o'z vaqtida topshirishga e'tibor bermaslik yoki hatto soliq to'lamaslik uchun ayirboshlashda qatnashish orqali daromad solig'ini to'lashdan qochishlari mumkin. Boshqa tomondan bunday xatti-harakatlar, albatta, turli soliqlarda olinishi mumkin. Ayni paytda, firmalar, masalan, jismoniy shaxslar shaxsiy daromad solig'ida bo'lgani kabi daromadlarni kam hisobot berishi, chegirmalarni bo'rttirib ko'rsatishi yoki yuridik shaxslarning daromad solig'i bo'yicha soliq deklarasiyasini taqdim etmasligi mumkin[4].

Adabiyotda iqtisod bilan bog'liq omillar soliq stavkasi, moliyaviy cheklovlar, daromad darajasi, soliq yuki, korrupsiya, iqtisodiy tuzilma, audit, jarima va ishsizlikdir. Rishardson (2016) soliq to'lashdan bo'yin tovlashda iqtisodiy omillarga qaraganda iqtisodiy bo'lmagan omillar ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Keyinchalik korrupsiya va soliq to'lashdan bo'yin tovlash keng tarqalgan muammolar sifatida tavsiflanadi. Korrupsiya – hokimiyat va vakolatli shaxs yoki korporasiya tomonidan noqonuniy afzalliklarga ega bo'lish yoki hokimiyatni shaxsiy manfaat uchun suiiste'mol qilish maqsadida amalga oshiriladigan insofsiz yoki jinoiy huquqbuzarlikdir (Khlif va Amara, 2019). Nihoyat, ishsizlik ma'lum yoshdan oshgan, haq to'lanadigan ishda yoki mustaqil ish bilan band bo'lmagan, lekin



ayni paytda ish qidirayotganlar sifatida aniqlanadi (Tabandeh va Tamadonnejad, 2015). Tadqiqotlarga ko'ra, ishsizlik yashirin iqtisodiyotning asosiy manbai hisoblanadi. [5].

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha eng so'nggi o'rganilganlar tomonidan yuqorida qayd etilgan iqtisodiy va noiqtisodiy omillardan tashqari boshqa omillar ham qo'llaniladi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va ma'lumot tarqatishning ta'siri kabi ba'zi o'zgaruvchilarni taqdim etadi. Birinchidan, butun dunyo bo'ylab hukumatlar so'nggi o'n yilliklarda internet texnologiyasi davlat xizmatlarini soddalashtirishi va ularning samaradorligini oshirishi mumkinligini tushunib, o'z aholisi bilan aloqa qilish uchun internetdan foydalanishda xususiy sektorga ergashdilar (Uyar va boshq., 2021). (Montenegro, 2021). Nihoyat, hushtakboz xususiy, davlat yoki davlat tashkiloti doirasida noqonuniy, axloqsiz, noqonuniy, xavfli, firibgarlik yoki davlat mablag'larini suiiste'mol qiluvshi bilim yoki harakatni oshkor qiladigan kishidir. Hushtakbozlik tizimlarini joriy qilish auditdan o'tish ehtimoliga noaniqlik qo'shish orqali aniqlash imkoniyatini oshiradi (Masslet va boshq., 2019). [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron yuk xati (Electronic Bill of Lading) g'oyasi birinchi bor 1990-yillarda paydo bo'lgan. 1990-yillarning boshlarida xalqaro savdo va logistika jarayonlarida qog'oz aylanmasini kamaytirish maqsadida elektron yuk hujjatlari konsepsiyasi shakllana boshladi. Bu davrda:

1990-yillar (AQSH va Buyuk Britaniya) — birinchi elektron Bill of Lading (e-BoL) konsepsiyasi ishlab chiqildi. 1994 yil – UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce qabul qilinib, elektron hujjatlarni huquqiy jihatdan tan olish boshlandi. Bu hujjat global elektron hujjatlar davriga asos soldi.

Elektron yuk xatlarini amalda birinchi bo'lib joriy etgan davlatlar.

A) AQSH — 1990-yillar oxiri. AQSH logistika sohasida raqamlashtirish bo'yicha yetakchi bo'lib, 1999–2003-yillar oralig'ida:

Electronic Bill of Lading

Electronic Freight Document

Digital Waybill kabi tizimlar test sifatida tatbiq etildi. 2000-yillardan boshlab yirik kompaniyalar (FedEx, UPS, Schneider Logistics) elektron transport hujjatlariga to'liq o'ta boshladi.

B) Yevropa Ittifoqi — 2008-yildan boshlab e-CMR tizimi. Yevropada elektron yuk xatining asosiy turi – CMR (yo'l orqali yuk tashish konvensiyasi).

2008-yil — e-CMR Additional Protocol qabul qilindi. 2011-yil — Ispaniya va Niderlandiya birinchi bo'lib e-CMRni amalda qo'llay boshladi. 2017-yildan — Yevropa bo'ylab keng joriy etila boshlandi. Bugungi kunda Yevropaning deyarli barcha davlatlari e-CMRga o'tgan.

C) Xitoy — 2010-yillarda ilg'or raqamli logistika tizimlari.

Xitoyda. 2013-yil – “China E-Waybill System” ishga tushdi. Elektron yuk xatlari blokcheynga ulanib, soliq tizimi bilan integratsiya qilindi. GPS kuzatuv, raqamli kodlash, elektron imzo majburiy yo'lga qo'yildi. Xitoy bugungi kunda dunyoda eng keng raqamlashtirilgan yuk xati tizimiga ega. Elektron yuk xatlarining global huquqiy tan olinishi. 2021–2023-yillar UNCITRAL tomonidan MLC – Model Law on Electronic Transferable Records qabul qilinishi elektron yuk xatlari global miqyosda huquqiy kuchga ega bo'lishiga imkon yaratdi. Bugungi kunda elektron yuk xatlari 70 dan ortiq davlatda tan olingan.

Elektron TTYX O'zbekistonda 2020-yildan boshlab logistika va soliq ma'lumotlarini raqamlashtirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. 2022–2023-yillarda EHF (elektron hisobvara-q-faktura), QR-chek, markirovka joriy etildi. 2023–2024-yillardan boshlab TTYXni raqamlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar ishlab chiqilmoqda, pilot loyihalar yo'lga qo'yilgan. “Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Hukumat qarori loyihasi tayyorlandi (mutaxassislar ro'yxati 1-ilovada). Asos: 2021-yil 30-dekabrda PQ–73-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo'l xaritasi”ning 31-bandi.

Bugungi kunda soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi xufiyona iqtisodiyotni jilovlash orqali soliq bazasini kengaytirish bilan birga iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlash, moliyaviy oqimlarni boshqarish va to'g'ri qaror qabul qilishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayon tizimli davom ettirilib, buxgalteriya va soliq hisobotlarini avtomatlashtirish uchun quyidagilarga tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish amaliyoti joriy etildi:

Amalda har bir yuklab jo'natilgan tovarlar uchun tovar-transport yuk xati 4 nus'hada qog'oz shaklida rasmiylashtiriladi hamda yuk jo'natuvchi va yuk oluvchi tomonidan kamida 5-yil davomida saqlanadi.



– tajriba asosida 2018-yil 15-oktabrdan Toshkent, Navoiy va Sirdaryo viloyatlaridagi tadbirkorlarga (Hukumatning 06.09.2018y. 807-son qarori);

2018-yil 15-oktabrdan 2022-yil 1-dekabrga qadar 582 ta tadbirkor tomonidan 701,5 mlrd.so'mlik 39,7 mingta elektron tovar-transport yuk xatlari rasmiylashtirilgan.

– 2022-yil 1-yanvardan noruda foydali qazilmalarni qazib oluvchi va qayta ishlovchi tashkilotlarga (Hukumatning 02.08.2021y. 483-son qarori).

2022-yil 1-yanvardan 1-dekabrga qadar 924 ta tadbirkor tomonidan 8,3 trln.so'mlik 141,4 mingta elektron tovar-transport yuk xatlari rasmiylashtirilgan.

Belorussiyada 2014-yil, Turkiyada 2020-yil, Qozog'istonda 2021-yil, Rossiyada esa 2022-yildan tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish amaliyoti joriy etilgan.

Tajriba natijalari tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish amaliyotini kengaytirishni taqozo etmoqda.

2023-yil 1-iyuldan boshlab yirik soliq to'lovchilar uchun, 2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha soliq to'lovchilar uchun tovar-transport yuk xatlarini majburiy tartibda elektron rasmiylashtirish tartibi joriy etilmoqda. Natijada 1-yilda o'rtacha 200 mingta tadbirkorlar tomonidan 925,5 trln.so'mlik tovar aylanma uchun 22 mlndan ortiq, shundan dastlab 785 ta yirik soliq to'lovchilarning 434,3 trln.so'mlik tovar aylanmasi uchun 8 mingga yaqin elektron tovar-transport yuk xatlari rasmiylashtiriladi. Elektron shaklda rasmiylashtirilgan yuk xatlarida keltirilgan ma'lumotlar himoya qilinishi hamda Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasida kamida 5-yil saqlanishi belgilanmoqda.

Tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish tartibi tasdiqlanmoqda. Xususan:

a) elektron tovar-transport yuk xati soliq organlarining axborot tizimiga integratsiya qilinishi hisobiga tizimda mavjud ma'lumotlar avtomatik tarzda shakllanadi;

b) elektron tovar-transport yuk xati istalgan vaqt va joyda elektron raqamli imzo orqali rasmiylashtiriladi;

v) elektron tovar-transport yuk xatlarini rasmiylashtirish bilan bir vaqtda elektron hisobvara-qfakturalar shakllanadi;

g) hujjatlardagi ma'lumotlar aniqligi va haqqoniyligi mahsus

QR-kod orqali mobil ilova yordamida tekshiriladi;

d) yuk yetkazib berilganligi real vaqt rejimida kuzatiladi.

Tadbirkorlik faoliyatida hujjatlar rasmiylatiruviga sarflanadigan vaqt tejaladi, qog'oz hujjatlar aylanmasi qisqartiriladi va tadbirkorlar o'rtasida o'zaro ma'lumot almashinuvi raqamlashtiriladi. Tovar-transport yuk xatini qog'oz shaklidan elektron shaklga o'tkazish natijasida 1-yilda o'rtacha 200 mingta tadbirkorlar tomonidan 16 mlrd.so'mdan ortiq material sarfi hamda ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlar qisqaradi.

Mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratish tizimi tubdan isloh qilinib, davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatini yaxshilash borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Elektron hujjat aylanish tizimida xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun elektron Tovar transport yuk xatlari ham joriy qilingan. Bu elektron hujjatning ham ma'lumotlarini saqlah va jadvallarning o'zaro bog'lanishi quyidagi rasmda keltirib o'tilgan. Bu ma'lumotlar mongo dbda saqlanadi.

Soliq ma'muriyatchiligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlarining ish samaradorligini oshirish, vaqtini tejash hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori ijrosini ta'minlash, tovar-moddiy boyliklarni tashish uchun tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Qarorning ikkinchi bandi talablariga ko'ra Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining respublika hududida 2024-yil 1-apreldan boshlab yirik soliq to'lovchilar uchun, 2024-yil 1-iyuldan boshlab barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va ularning hisobini yuritish tizimini majburiy tartibda joriy etish belgilangan. Shunga muvofiq yuqoridagi tizim ishlab chiqildi va joriy qilindi.

Tovar-transport yuk xatlarini elektron shaklda rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizom.

Ushbu Nizom tovar-transport yuk xatlarini elektron hujjat aylanish tizimi operatorlarining axborot tizimlari orqali elektron shaklda rasmiylashtirish tartibini belgilaydi. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

tovar-transport yuk xati – tovar-moddiy qimmatliklarni hisobdan chiqarish, ularni olib o'tish yo'lida hisobini yuritish, kirim qilish, omborxona operatsiyalarini va buxgalteriya hisobini yuritish, shuningdek yukni tashish uchun hisob-kitoblar qilish hamda bajarilgan ishlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan hujjati;

elektron tovar-transport yuk xati (keyingi o'rinlarda – ETTYuX) –belgilangan tartibda elektron shaklda rasmiylashtiriladigan tovar-transport yuk xati;

yuk jo'natuvchi - yuk tashish jarayonida yuk egasi yoki shartnoma (vositachilik, topshiriq) asosida uning nomidan ish ko'ruvchi ishonchli vakil;



yuk oluvchi - yukni va yukka ilova qilingan hujjatlarda ko'rsatilganlarni olishga vakil qilingan yuridik yoki jismoniy shaxs;

ekspeditor — transport ekspeditsiyasi shartnomasi tomoni — tovarlarni tashishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs;

yukni yetkazib beruvchi - yuk jo'natuvchi, yuk oluvchi yoki transport ekspeditsiyasi shartnomasi asosida tovarlarni tashishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi ekspeditor;

yuk tashuvchi – mulk huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda transport vositasiga ega bo'lgan, yuk jo'natuvchi, yuk oluvchi yoki yuk tashish shartnomasi asosida yukni belgilangan manzilga yetkazib beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs, shuningdek ekspeditor;

mijoz – ekspeditorga o'z hisobidan belgilangan yuk tashish bilan bog'liq xizmatlarni bajarish yoki bajarishni tashkil etish bo'yicha tuzilgan transport ekspeditsiya shartnomasi tomoni - yuk jo'natuvchi yoki yuk oluvchi;

buyurtmachi – transport xizmatlarini bajarish haqidagi talabnoma bilan murojaat qilgan yukni jo'natuvchi, yukni oluvchi, ekspeditor;

yukni yetkazib beruvchi shaxs - mehnat shartnomasi yoki fuqaroviy-huquqiy shartnoma asosida faoliyatini amalga oshirayotgan, yuklarni qabul qilish, kuzatib borish va topshirish bo'yicha transport-ekspeditorlik operatsiyalarini amalga oshiruvchi shaxs;

haydovchi — mehnat shartnomasi yoki fuqaroviy-huquqiy shartnoma asosida faoliyatini amalga oshirayotgan, transport vositasini boshqarib borayotgan shaxs, shuningdek yukni yetkazib beruvchi shaxs;

Tasdiqlangan ETTYuX – bu yuk jo'natuvchi, yuk oluvchi va yukni yetkazib beruvchi shaxs tomonidan elektron raqamli imzo orqali tasdiqlangan elektron hujjat.

Rad etilgan ETTYuX – yukni yetkazib beruvchi shaxs tomonidan yuk jo'natuvchidan, yuk oluvchi esa yukni yetkazib beruvchi shaxsdan yuklarni qabul qilish jarayonida aniq sababi ko'rsatilgan holda tasdiqlash rad etilgan elektron hujjat;

ETTYuXni rasmiylashtirish jarayoni ishtirokchilari (keyingi o'rinlarda – ishtirokchilar) – yuk jo'natuvchi, yuk oluvchi va yukni yetkazib beruvchi shaxs;

QR-kod – elektron yuk xatlariga biriktiriladigan, dasturiy mahsulotlar orqali o'qish (skanerlash) vaqtida elektron yuk xatlari haqida barcha ma'lumotlarga havola bo'ladigan maxsus matritsali shtrix kod.

Yuk tashish quyidagi tartiblarda amalga oshiriladi:

yuk jo'natuvchi tomonidan o'z transport vositasi (yoki ijaraga olingan transport vositasi) orqali tashish;

yuk oluvchi tomonidan o'z transport vositasi (yoki ijaraga olingan transport vositasi) orqali tashish;

ekspeditor tomonidan o'z transport vositasi (yoki ijaraga olingan transport vositasi) orqali tashish;

yuk tashish shartnomasi asosida yuk tashish xizmatini bajaruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan o'z transport vositasi (yoki ijaraga olingan transport vositasi) orqali tashish.

Ushbu Nizomda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tovar-transport yuk xati yuk jo'natuvchi tomonidan elektron shaklda shakllantirishi shart.

ETTYuX shakllantirish elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

ETTYuXlarni shakllantirish, yuborish, tasdiqlash va saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish, xo'jalik yurituvchi sub'ekt va operator o'rtasida tuzilgan shartnoma (ommaviy oferta) asosida amalga oshiriladi.

Tovar-transport yuk xatini elektron shaklda rasmiylashtirish ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur Nizomning 2-ilovasidagi elektron shaklda rasmiylashtirilgan tovar-transport yuk xati tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarishga, tovar-moddiy boyliklarning kirim qilinishiga, shartnomalar (yuk tashish va transport-ekspeditorlik) asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob qilishga, transport ishini hisobga olish, haydovchiga (yukni yetkazib beruvchi shaxsga) ish haqi yozish uchun asos bo'lib hisoblanadi. ETTYuX axborot tizimida texnik nosozliklar yuzaga kelganda tovar-transport yuk xati qog'oz shaklida rasmiylashtiriladi. Bunda, texnik nosozlik xizmat ko'rsatuvchi elektron hujjat aylanish tizimi operatori tomonidan rasman tasdiqlangan bo'lishi lozim va axborot tizimidagi nosozliklar bartaraf etilgandan so'ng besh kalendar kun ichida qog'oz shaklida ko'rsatilgan sana bilan tovar-transport yuk xati elektron shaklda axborot tizimiga kiritilishi shart. Soliq to'lovchilar tomonidan davlat siriga taalluqli bo'lgan yuk tashishlar amalga oshirilganda qog'oz shaklda tovar-transport yuk xati rasmiylashtiriladi. Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni kiritgan holda rasmiylashtirilgan ETTYuX bilan yuklarni tashish - soxta hujjatlar bo'yicha tashish bo'lib hisoblanadi hamda qonunchilik hujjatlariga asosan javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. TTYXni to'liq elektron shaklga o'tkazish. Tovar-transport yuk xatlarini EHF singari yagona elektron platforma orqali yaratish. Elektron raqamli imzo orqali tasdiqlash.



2. “Raqamli logistika” yagona platformasini yaratish. Platformani quyidagi tizimlar bilan integratsiya qilish. Soliq qo‘mitasi, Bojxona organlari, Transport inspeksiyasi, Ichki ishlar organlari, Markirovka tizimi (“ASL BELGI”).

3. Avtotransportlar uchun GPS kuzatuv tizimini bog‘lash. TTYX avtomatik ravishda transport harakatiga mos kelishi kerak.

4. QR-kodli TTYX joriy etish. Yukni qabul qiluvchi, tekshiruvchi organlar, bojxona yoki soliq inspektorlari QR orqali hujjatni tekshiradi.

5. Avtomatlashtirilgan risk-tahlil tizimini yaratish. Tizim quyidagilarni avtomatik aniqlaydi. Miqdor mos kelmasligi, ortiqcha yo‘l bosilishi, hujjatlar takroriy yaratilishi, noqonuniy aylanma belgilari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25 - dekabrda O‘RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari. www.soliq.uz.
3. Efeelloo N. & Disk N. (2018). An Empirical Review of the Determinants of Tax Evasion in Nigeria: Emphasis on the Informal Sector Operators in Port Harsourt Metropolis. *Journal of Assounting and Finansial Management*, 4(3), 1–10. <https://d1wqtxts1xzle7.sloudfront.net/63209917>
4. Johnson Janet Berry (2022) Tax Liability: Definition, Salsulation, and Example. The investopedia team. Ostober 26, <https://www.investopedia.com/terms/t/ taxliability.asp>.
5. Josephson Amelia (2022) The Ultimate Guide to Tax Liability. November 16,. <https://smartasset.com/taxes/tax-liability>.
6. Masslet D., Montmarquette S. & Viennot-Briot N. (2019). San whistleblower programs reduce tax evasion? Experimental evidence. *Journal of Behavioral and Experimental Esonomiss*, 83, 101459. <https://doi.org/10.1016/j.soses.2019.101459>.
7. Owusu G.M.Y., Bekoe R.A., Anokye F.K., & Anyetei L. (2019). What Fastors Influenze the Intentions of Individuals to Engage in Tax Evasion? Evidence from Ghana. *International Journal of Publis Administration*, 43(13), 1143–1155. <https://doi.org/10.1080/01900692.2019.1665686>.
8. Ozili P.K. (2020). Tax evasion and finansial instability. *Journal of Finansial Srime*, 27(2), 531–539. <https://doi.org/10.1108/jfs-04-2019-0051>.
9. Rishardson G. (2016). The Determinants of Tax Evasion: A Sross-Sountry Study. *Finansial Srimes: Psychologisal, Teshnologisal, and Ethisal Issues*, 33–57. https://doi.org/10.1007/978-3-319-32419-7_2.
10. N.K.Muxammadov “Ma‘lumotlarni elektron hujjat aylanish tizimida shakllantirish orqali soliq ma‘murchiligini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. Toshkent 2024 – yil, 156 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>